

O'ZBEKISTONDA EKSTRADITSIYA VA MAHKUMNI TOPSHIRISH INSTITUTLARINI HUQUQIY MUSTAHKAMLASH MUAMMOLARI: NAZARIYA VA AMALIYOT



Nasrullayev Firdavs Suxrobovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda ekstraditsiya va mahkumlarni topshirish institutlarini huquqiy mustahkamlashning dolzarb muammolari tahlil qilingan. Amaldagi qonunchilikda ushbu tushunchalarning aniq huquqiy ta'riflarining mavjud emasligi ularni qo'llashda turli talqinlarga sabab bo'layotgani asoslangan. Ekstraditsiya va topshirish tartibotlarini xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish, milliy qonunchilikda mustaqil institut sifatida huquqiy jihatdan aniq belgilash taklif etilgan.

Kalit so'zlar: ekstraditsiya, mahkumni topshirish, jinoyat protsessi, xalqaro hamkorlik, huquqiy tartibga solish.

Аннотация. В статье анализируются проблемы правового закрепления институтов экстрадиции и передачи осуждённых в Узбекистане. Подчёркивается отсутствие чётких легальных дефиниций, что вызывает разночтения в право применении. Обосновывается необходимость гармонизации национального регулирования с международными стандартами и законодательного уточнения правовой природы указанных институтов.

Ключевые слова: экстрадиция, передача осуждённых, уголовный процесс, международное сотрудничество, правовое регулирование.

Abstract. The article examines the challenges of legally defining extradition and the transfer of convicted persons in Uzbekistan. The absence of clear statutory definitions leads to inconsistencies in legal practice. The study argues for harmonizing national procedures with international standards and for establishing precise legal definitions of these institutions within domestic legislation.

Keywords: extradition, transfer of convicted persons, criminal procedure, international cooperation, legal regulation, risk factors.

Ekstraditsiya va mahkumlarni topshirish institutlari zamonaviy jinoyat-protsessual hamkorlikning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ular transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashish, jazoni ijro etish hamda inson huquqlarini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro huquqiy yordamning ushbu shakllari xalqaro shartnomalar va milliy qonunchilik normalari asosida amalga oshiriladi va sud hukmlarini ijro etishda, ayblanuvchi yoki mahkumga nisbatan vakolatli davlat huquqiy tasarrufiga yetkazilishida muhim bog'lovchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Ayniqsa, mahkumni o'z fuqaroligi bo'lgan davlatga jazoni o'tash uchun topshirish instituti insonparvarlik prinsiplarini amalga oshirish, jamiyatga moslashtirish jarayonini yengillashtirish va qayta jinoyat sodir etilishining oldini olishda alohida ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, "ekstraditsiya" va "topshirish" tushunchalarining huquqiy tabiati, tartibi va maqsadlari o'rtasidagi farqlar milliy va xalqaro huquqda aniq mustahkamlanishi talab etiladi. Mazkur maqolada ushbu institutlarning huquqiy mohiyati, o'zaro farqlari hamda amaldagi tartib-taomillarni takomillashtirish sabablari tahlil qilinadi.

Jinoyat-protsessida jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlik instituti shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish va hukmni ijro etish uchun ushlab berish (*ekstraditsiya*) hamda ozodlikdan mahrum etilgan shaxsni fuqarosi bo'lgan davlatda jazoni o'tashni davom ettirish uchun topshirish institutlarini o'z ichiga oladi.

Yuridik adabiyotlarda shu kunga qadar “ekstraditsiya” tushunchasi va uning huquqiy mazmuni yuzasidan yagona ilmiy yondashuv shakllanmagan. O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksida “*ekstraditsiya*” atamasi to'g'ridan-to'g'ri qo'llanilmasligiga qaramay, ushbu institut milliy huquq tizimida bir qator qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingan. Jumladan, 2018-yil 2-iyuldagi “O'zbekiston Respublikasi bilan Turkiya Respublikasi o'rtasida shaxslarni ekstraditsiya qilish to'g'risidagi bitimni ratifikatsiya qilish haqida”gi qonunda ekstraditsiya institutining huquqiy asoslari, tartibi va ikki davlat o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mexanizmlari aniq belgilab qo'yilgan [1].

A.I. Djigar, yondashuvdan kelib chiqib, “*ekstraditsiya*” va “*topshirish*” atamalarini mazmuni jihatdan o'zaro o'xshashligini rad etib bo'lmaydi. Shuning uchun, mazkur tushunchalarni huquqiy adabiyotlarda bir-biriga o'xshash atamalar sifatida foydalanish mumkin, deb hisoblaydi [2]. Biroq, T.V. Reshetnev bildirgan fikr asosli, chunki bunday ikki xil yondashuvga yo'l qo'yib bo'lmaydi, lekin jinoyat-protsessual qonunchiligida yagona atamalardan foydalanish talab etiladi [3].

Bir xil huquqiy institutni “*topshirish*” va “*ekstraditsiya*” deb atash, shuningdek, JPKda mavjud bo'lmagan “*ekstraditsiya*” atamasini normativ hujjatlarda ishlatilishi amaliyotchilar orasida talqin qilishda tushunmovchiliklarga sabab bo'ladi. Shu bois, JPKga “*ekstraditsiya*” tushunchasining aniq huquqiy ta'rifini kiritish maqsadga muvofiqdir.

So'nggi yillarda ekstraditsiya institutini o'rganishga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada oshmoqda. Bu institutning nazariy va amaliy jihatlari, uning shakllanish tarixi, hozirgi rivojlanish bosqichi va kelgusidagi taraqqiyot yo'nalishlari ko'p sonli ilmiy maqolalar va monografiyalarda yoritilmoqda [4]. Shu bilan birga, “*ekstraditsiya*” tushunchasini aniq ta'rifni belgilash masalasi borasida ilmiy bahsmunozaralar haligacha o'z dolzarbligini yo'qot-

magan [5]. R.M.Valeevning ta'kidlashicha, ushlab berish (*ekstraditsiya*) deganda, xalqaro shartnomalar hamda huquqning umume'tirof etilgan normalari va prinsiplariga asoslangan huquqiy yordam shakli tushuniladi. Uning mohiyati shundaki, jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan yoki sud hukmi bilan jazoga tortilgan shaxs, bo'lib turgan davlati tomonidan uning topshirilishini talab qilayotgan davlatga topshiriladi. Bunday talab quyidagi hollarda yuzaga kelishi mumkin: shaxs jinoyatni so'rov yuboruvchi davlat hududida sodir etgan bo'lsa yoki ushbu davlatning fuqarosi bo'lsa; jinoyatdan jabr ko'rgan davlat uni jinoiy javobgarlikka tortish uchun chiqarilgan hukmni ijro etish maqsadida topshirishni talab qilayotgan bo'lsa [6].

Adabiyotlarda qo'llanilayotgan “*ushlab berish*” tushunchasini tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'pgina mualliflar ekstraditsiyani “*topshirish*” atamasi orqali ta'riflaydi. Biroq, ushbu atamaning o'zi amalda ekstraditsiyadan farq qiladigan va mustaqil yo'nalish sifatida shakllanib ulgurgan xalqaro hamkorlik institutlariga nisbatan ham qo'llaniladi. Bu esa jinoyat protsessi sohasida xalqaro hamkorlikning turli huquqiy mexanizmlarini aralashtirib yuborishga olib keladi [7].

Yuridik manbalarda “*ekstraditsiya*” atamasi, odatda, tor va keng ma'nolarda qo'llaniladi. Tor ma'noda “*shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish yoki hukmni ijro etish uchun ushlab berish*” tushunchasi to'liq mos keladi. Keng ma'noda esa ekstraditsiya umumiy kategoriya sifatida talqin qilinib, faqat jinoiy javobgarlikka tortish uchun topshirish emas, balki xalqaro sud organlariga shaxslarni topshirish institutini, shuningdek jazoni o'tash uchun mahkumlarni topshirish institutlarini o'z ichiga qamrab oladi [8]. Bunda, keng ma'noda atamadan foydalanish uning lingvistik ma'nosiga tayanadi, ya'ni “*extraditia*” lotincha shaxsni tashqi subyektga topshirishning har qanday ko'rinishini anglatadi [9].

Terminologik munosabatga oid bahslarda “*ekstraditsiya*” va “*topshirish*” tushunchalar borasida bir xil yondashuv mavjud emas. Masalan, A.V. Naumovning ta'kidlashicha, xalqaro huquq amaliyotida “*jinoyatchilarni topshirish*” yoki boshqacha aytganda – “*ekstraditsiya*” deganda, davlat hududida jinoyat sodir etgan shaxsni javobgarlikka tortish yoki unga nisbatan chiqarilgan hukmni ijro etish uchun boshqa davlat yurisdiksiyasiga berish

jarayoni tushuniladi. Muallifning fikriga ko'ra, ushbu atama mazmunan ikki davlat o'rtasidagi jinoyat huquqi sohasida o'zaro huquqiy yordamning maxsus shaklini anglatadi [10].

V.M. Lebedevaning yondashuviga ko'ra, jinoyat sodir etgan shaxsni topshirish (*ekstraditsiya*) – ayblov yoki hukm ijrosini ta'minlash maqsadida jinoyat sodir etganlikda gumon qilingan yoki hukm qilingan shaxsni joylashgan davlat tomonidan uning fuqarosi bo'lgan davlatga berish tartibi [11].

Mualliflar tomonidan keltirilgan ta'riflarda “ekstraditsiya” va “topshirish” atamaları tahlili huquqiy nuqtai nazardan to'g'ri emas.

A.K. Romanov va O.B. Lyasyagin tomonidan ilgari surilgan fikrga ko'ra, “ekstraditsiya” va “topshirish” tushunchalarini bir xil deb tushunish nazariy va huquqiy jihatdan to'g'ri emas. Mualliflar keng ma'nodagi yondashuvni qo'llab-quvvatlar ekan, ekstraditsiyani faqat jinoyatchini bir davlatdan ikkinchisiga topshirish bilan cheklash hozirgi zamonaviy huquqiy amaliyotga mos kelmasligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, ekstraditsiya instituti “topshirish”dan ancha keng bo'lib, uning tarkibiga xalqaro sud organlariga shaxsni o'tkazish, jazoni o'tash uchun mahkumni o'z mamlakatiga qaytarish kabi “topshirish”ning mustaqil shakllari kiradi. Shu sababli, “topshirish” ekstraditsiyaning bir ko'rinishi bo'lib, “ekstraditsiya” tushunchasi “topshirish”dan ko'ra ancha keng ma'noga ega [12].

T.V. Reshetnyovaning yondashuviga ko'ra, ekstraditsiya instituti bir nechta hajm va mazmundagi tarkibiy qismlardan iborat. Avvalo, jinoiy javobgarlikka tortish yoki hukmni ijro etish uchun shaxsni topshirish bir tarmoq sifatida ajratiladi. Shuningdek, ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan shaxslarni jazoni o'z fuqaroligi bo'lgan davlatda o'tash uchun o'tkazish alohida institutning tarkibi sifatida qaraladi. Bundan tashqari, olimlar tomonidan ekstraditsiya jarayonini amalga oshirishda normalar majmuasini alohida bo'lim sifatida ko'radi. Ushbu guruhga ekstraditsiyaga oid tekshiruv, ekstraditsiya tranziti, shuningdek, bir nechta xorijiy davlatlardan kelib tushgan topshirish yoki o'tkazish haqidagi so'rovlar o'rtasidagi o'zaro qarama-qarshilikni hal etish tartiblari kiradi [13].

Ekstraditsiya – jinoyatchilikka qarshi kurash va jinoyat-protsessi sohasida adolatni ta'minlash, davlatlar o'rtasidagi hamkorlikning umumiy tarmoqlararo instituti. Jinoyatlarning oldini olish, ularni aniqlash va tergov qilish, shuningdek sud hukmlarini ijro etishga qaratilgan xalqaro huquqiy jarayon sifatida namoyon bo'ladi [14].

Ekstraditsiya huquqning biror-bir sohasi doirasi bilan cheklanmaydi. Jinoyat, jinoyat-protsessual, xalqaro, davlat huquqining qator institutlari bilan chambarchas bog'liq, shaxs huquqlari, davlat suvereniteti, siyosiy va ma'muriy munosabatlar, fuqarolik va boshpana kabi masalalar, shuningdek, davlatlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik kabi muhim sohalarga bevosita ta'sir ko'rsatadi [15].

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksida ekstraditsiya masalalariga bag'ishlangan 65-bob (599–610-moddalar)ning joriy etilishi ekstraditsiya borasidagi ilmiy bahslarga nuqta qo'ydi. Endi ekstraditsiya jinoyat-protsessi doirasiga mansub institut sifatida rasman e'tirof etilgan deb hisoblanadi.

Ozodlikdan mahrum etilgan shaxsni jazoni o'tashni davom ettirish uchun qabul qilib olish va topshirish instituti – jinoyat-protsessi sohasidagi xalqaro hamkorlikka nisbatan yangi yo'nalish bo'lib, uning maqsadi mahkumlarning ijtimoiy reabilitatsiyasi va qayta ijtimoiylashuviga ko'maklashish, jinoyatning takror sodir etilishini kamaytirish hamda jinoyat-ijroiya sohasida davlatlar o'rtasida o'zaro hamkorlikdagi munosabatlarni rivojlantirishdan iborat. Amalda ushbu institutning aniq huquqiy ta'rifi ilmiy manbalarda kam uchraydi, asosan, o'quv adabiyotida protsessual va huquqiy tartibga solish mexanizmlari doirasida bayon qilinadi [16].

A.I. Boysov mazkur masalaga oid tadqiqotlaridan birida quyidagi ilmiy ta'rifni keltiradi: «Mahkumlarni o'tkazish – bu bir davlat hududida ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan shaxsni uning fuqaroligi yoki doimiy yashash joyi bo'lgan boshqa davlatga hukmni ijro etish maqsadida o'tkazishdan iborat xalqaro-huquqiy tartibdir» [17].

D.N. Shuruxnova ta'kidlaganidek, mahkumni topshirish – xalqaro hamkorlikning maxsus huquqiy mexanizmi bo'lib, xalqaro shartnomalar

hamda milliy qonunchilik normalari asosida bir davlatda jinoyat sodir etib, ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan shaxsni uning fuqarosi yoki doimiy yashovchisi bo'lgan boshqa davlatga jazoni ijro etish uchun o'tkazishni nazarda tutadi. Bunday topshirish ikki ishtirokchi davlat tashabbusi, shuningdek mahkumning o'zi yoki uning vakillari murojaatiga binoan amalga oshiriladi. Institutning asosiy maqsadi – mahkumga jazoni vatanida o'tash imkonini yaratish orqali uning jamiyatga qaytishi va kelgusida jinoyat sodir etishining oldini olishini ta'minlashdan iborat [18].

T.V. Reshetneva tadqiqotida mahkumni topshirishga quyidagicha ta'rif beradi: "Mahkumni topshirish huquqning mustaqil tarkibiy yo'nalishi sifatida hukm chiqargan davlatdan jazoni ijro etuvchi davlatga mahkumni o'tkazish tartibini belgilaydigan huquqiy normalar va prinsiplar majmuidan iborat. Mazkur institut jazoning keyingi qismi aynan ijro etuvchi davlatda o'talishini ta'minlashga qaratilgan" [19].


Ozodlikdan mahrum etilgan mahkumlarni jazoni o'z fuqaroligi bo'lgan davlatda o'tash uchun topshirishga oid huquqiy tartiblar yil sayin takomillashib bormoqda. Bu institut xalqaro jinoyat

protsessida hamkorlikning mustaqil yo'nalishi sifatida e'tirof etilayotgani uning o'ziga xos xususiyati, xalqaro va milliy huquq normalari bilan alohida qoidaga muvofiq tartibga solinishi, aniq maqsad va mazmunga egaligi bilan izohlanadi [20]. Mazkur yondashuv, o'z navbatida, xalqaro hamkorlikning ushbu yo'nalishidagi huquqiy rivojlanishga to'liq mos keladi va uning ilmiy jihatdan asoslangan deb baholash mumkin.

Hukm qilingan shaxsni topshirish va ekstraditsiya o'rtasidagi o'xshashlik shundaki, har ikkalasi ham qonuniy kuchga kirgan ayblov hukmi ijrosini ta'minlash maqsadida shaxsni bir davlat yurisdiksiyasidan boshqasiga o'tkazishni nazarda tutadi. Bu institutlar o'zaro hukmlarni tan olish va davlatlarning qonunlarini hurmat qilish prinsipiga asoslanadi.

Har ikki holatda ham shaxs boshqa davlatga jazoni o'tash uchun o'tkaziladi va bir xil jinoyat uchun qayta javobgarlikka tortilmaydi [21].

K.Ye. Kolibabning ta'kidlashicha, bir-biriga o'xshashligiga qaramasdan, ushlab berish va mahkumlarni topshirish institutlarini mohiyati o'rtasida farq mavjud [22].



Ekstraditsiyaning mahkumlarni topshirish institutidan farqi, nafaqat sud hukm chiqargan shaxslarga, balki jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslarga nisbatan ham tatbiq etilishidir.

Yuqoridagi ta'riflar tahlilidan shuni anglash mumkinki, "ekstraditsiya" va "topshirish" tushunchalari to'liq bir ma'noli emas.

Ekstraditsiya — jinoyat sodir etganlikda gumon qilingan, ayblanayotgan yoki hukm qilingan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish yoki hukmni ijro etish maqsadida bir davlatdan boshqa davlat yurisdiksiyasi ixtiyoriga berishni nazarda tutuvchi, xalqaro shartnomalar va milliy qonunchilik normalariga tayangan holda amalga oshiriladigan, ko'p tarmoqli xususiyatga ega bo'lgan kompleks xalqaro-huquqiy institut.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksida "topshirish" va "ekstraditsiya" atamaları aniq normativ ta'rifning mavjud emasligi amaliyotda qo'llashda muayyan qarama-qarshiliklar keltirib chiqarmoqda. Amaldagi qonunchilikda mazkur tushunchalarning huquqiy mazmuni, tartibi

va huquqiy oqibatlari keskin farq qilsa-da, ularning qonuniy ta'rifi mavjud emasligi ularning bir-biridan ajratilishini qiyinlashtiradi. Shu munosabat bilan, "topshirish" va "ekstraditsiya" tushunchalarining huquqiy mazmuni, tarkibiy belgilari o'rtasidagi asosiy farqlarni qonun darajasida mustahkamlash maqsadga muvofiqdir. Ushbu normalarni bevosita JPKga kiritish amaliy jihatdan doimo maqbul emas, chunki ekstraditsiya instituti ko'p tomondan xalqaro huquq normalariga tayanadi va huquqiy munosabatlarning mustaqil tarmog'ini tashkil qiladi. Shu bois, ushbu atamalarni aniq huquqiy ta'rifini alohida qabul qilinishi lozim bo'lgan *"Ekstraditsiya to'g'risida"*gi qonunda mustaqil normalar sifatida belgilash maqbul hisoblanadi. Mahkumni o'z fuqaroligi yoki doimiy yashash joyi bo'lgan davlatga jazoni o'tash uchun topshirish – bu jinoyat protsessual sohasidagi xalqaro hamkorlikning mustaqil yo'nalishi bo'lib, uning maqsadi mahkumga jazoni o'z milliy ijtimoiy muhitida o'tash imkonini yaratish orqali jinoiy jazoning maqsadlariga erishish samaradorligini oshiradi hamda insonparvarlik prinsipini ta'minlaydi.

Foydalanilgan manbalar

1. "O'zbekiston Respublikasi bilan Turkiya Respublikasi o'rtasida shaxslarni ekstraditsiya qilish to'g'risidagi bitimni ratifikatsiya qilish haqida" 2018-yil 2-iyuldagi O'RQ-477-son qonun.. Режим доступа: <https://lex.uz/docs/3803151>.
2. Джигарь А.И. Экстрадиция: терминологический аспект // Закон и право. – 2008. – № 6. – С. 108–110.
3. Решетнева Т.В. Экстрадиция полипатридов в российском уголовном судопроизводстве: проблемы теории и практики: Дис. ... канд. юрид. наук. – Ижевск, 2009. – 82 с.
4. Сафаров Н.А. Экстрадиция в международном уголовном праве: проблемы теории и практики. – М.: Юрлитинформ, 2005. – 256 с.
5. Бойцов А.И. Выдача преступников. – СПб.: Юридический центр Пресс, 2004. – 412 с.
6. Васильев Ю.Г. Институт выдачи преступников (экстрадиции) в современном международном праве: Дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2003. – 189 с.
7. Строганова А.К. Экстрадиция в уголовном процессе Российской Федерации: Дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2004. – 165 с.
8. Валеев Р.М. Выдача преступников в современном международном праве. – Казань: КГУ, 1976. – С. 19–65.
9. Смирнов М.И. Понятие и правовая природа выдачи (экстрадиции) // Прокурорская и следственная практика. – 2006. – № 3–4. – С. 100–109.
10. Ижнина Л.П. Соотношение терминов «правовая помощь по уголовным делам», «экстрадиция» и «выдача преступников» в российском уголовном процессе // «Чёрные дыры» в российском законодательстве. – 2008. – № 1. – С. 368–376.
11. O'zbek tilining izohli lug'ati. . URL: <https://izoh.uz/uz/word/ekstraditsiya>.
12. Наумов А.В. Практика применения Уголовного кодекса Российской Федерации: комментарий судебной практики и доктринальное толкование /под ред. Г.М. Резника. – М.: Норма, 2005. – 512 с.

13. Дадынский Ф.М. Латинско-русский словарь к источникам римского права. – М.: Зерцало, 1998. – 640 с.
14. Романов А.К., Лысягин О.Б. Институт экстрадиции: понятие, концепции, практика // Право и политика. – 2005. – № 3. – С. 45–52.
15. Волженкина В.М. Выдача в российском уголовном процессе. – М.: Юрист, 2002. – 210 с.
16. Уголовный процесс: Учебник для вузов / под ред. В.И. Радченко. 2-е изд. – М.: Норма, 2006. – 768 с.
17. Уголовный процесс: Учебник / под ред. В.П. Божьева. – М.: Норма, 2006. – 592 с.
18. Бойцов А.И. Институт передачи осужденных. В кн.: Международное уголовное право. – СПб., 2004. – С. 380–390.
19. Шурухнова Д.Н. Выдача, передача и выдворение лиц в отношениях государств: правовые и личные гарантии: Дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2001. – 155 с.
20. Абдрашитова Р.З. Международное сотрудничество в сфере уголовного судопроизводства: проблемы становления и развития // Право и политика. – 2006. – № 2. – С. 115–121.
21. Смирнов М.И. Правовая природа экстрадиции // Прокурорская и следственная практика. – 2006. – № 4. – С. 102–105.
22. Колибаб К.Е. Институт передачи осужденных для отбывания наказания в другие государства // Журнал российского права. – 1999. – № 5–6. – С. 88–95.

